



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Samarqand davlat universitetining
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti



TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-2659

2025/N^o2



SLIB.UZ
Scientific library of Uzbekistan





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
Ilmiy-uslubiy jurnal

ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО И ПЕДАГОГИКА
Научно-методический журнал

ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY
Scientific and methodical journal

2025-yil 2-son

DENOV – 2025



Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentyabrdagi 325/5-son qaroriga asosan 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha OAK nashrlari ro'yxatiga kiritilgan. Entrepreneurship and pedagogy scientific and methodical journal was included in the list of publications on Pedagogical Sciences at 13.00.00 based on the decision of the HAC (the Higher Attestation Commission) No. 325/5 dated September 30, 2022.

Tahrir kengashi raisi: Ruziyev Oybek Abdimo'minovich – DTPI rektori

Bosh muharrir: Shukurov Rustam Eshonqulovich – Imiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

Mas'ul muharrir: Allayorova Soliha Narzullayevna – O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Mas'ul kotib: Jurayev Boxodir Turdaliyevich – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i.

Muharrir: Mordayev Bekzod Turobovich

Chairman of the editorial board: Ruziyev Oybek Abdimuminovich – Rector of DIEP.

Editor-in-chief: Shukurov Rustam Eshonkulovich – Vice-Rector for scientific affairs and innovations.

Responsible editor: Allayorova Soliha Narzullayevna – Vice-Rector for academic affairs.

Responsible secretary: Jurayev Bokhodir Turdaliyevich – Head of the department of scientific research, innovations and scientific and pedagogical personnel training.

Editor: Mordayev Bekzod Turobovich

Tahrir hay'ati a'zolari:

Raximov G'anisher Xudoyqulovich – Filologiya fanlari doktori (PhD), Professor.

Sol Von Te (Janubiy Korea) – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Dani Raviprakash Gavindrao (AQSH) – Fiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Professor.

Musurmonqulova Madina Nosirovna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI

Suvonov Zavqiddin Norqulovich – Filologiya fanlari doktori (DSc), DTPI.

Rajapov O'tkir Do'snaye'vich – Iqtisod fanlari doktori (DSc), DTPI.

Bozorov Ruslan Hamdamovich – Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent, DTPI.

Melikov Otabek Maxmadaminovich – Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich – Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Allayarova Soliha Narzullayevna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent, DTPI.

Shukurov Rustam Eshonqulovich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Maxmudov Shokir Kamolovich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

To'ra'xonov Fozil Bobonazarovich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Mirzayev Mutalib Jurayevich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent, DTPI.

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent, DTPI.

Members of the Editorial Board:

Rakhimov Ganisher Khudoikulovich – Doctor of philological sciences (PhD), Professor.

Sol Von Te (South Korea) – Doctor of philosophy in philological sciences (PhD).

Dani Raviprakash Gavindrao (USA) – Doctor of philosophy in philological sciences (PhD), Professor.

Musurmonkulova Madina Nosirovna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Suvonov Zavqiddin Norqulovich – Doctor of philological sciences (DSc), DIEP.

Rajapov O'tkir Do'snaye'vich – Doctor of economic sciences (DSc), DIEP.

Bozorov Ruslan Hamdamovich – Doctor of philosophy in economics (PhD), Associate professor, DIEP.

Melikov Otabek Makhmadaminovich – Doctor of philosophy in economics (PhD), DIEP.

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich – Doctor of philosophy in economics (PhD), DIEP.

Allayarova Soliha Narzullaevna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), Associate professor, DIEP.

Shukurov Rustam Eshonkulovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Makhmudov Shokir Kamolovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Turahonov Fozil Bobonazarovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Mirzaev Mutalib Juraevich – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor, DIEP

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD),



Ro'ziyeva Inobat Jo'rayevna – Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Xamroyeva Marg'uba Komilovna – Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Xolmurodov Mengboy Amirovich – Biologiya fanlari nomzodi, DTPI.
Jurayev Boxodir Turdaliyevich – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Nazirov Baxtiyor Safarovich – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Muminov O'limas Ravshanqulovich – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Xo'janova Tamara Jo'rayevna – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Toshboboyev Maqsud Jalilovich – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Raxmatov Erkin Tog'aymurodovich – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Mamajanov Rahmatilla Yakubjanovich – Texnika fanlari nomzodi, Dotsent, DTPI.
Tursunbadalov Umid Abdumalikovich (Tojikiston) – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Sobirova Mavjuda Ro'ziyevna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent, DTPI.
Eshkarayev Ulug'bek Choriyevich – Texnika fanlari nomzodi, Dotsent, DTPI.
Ismatov Sunnatilla Shamsulloyevich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent, DTPI.
Shukurov Dilmurod Xursanovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Abduraxmanov Alijon Abdulaxatovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Primkulov Begali Sheraliyevich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Karimov Husniddin Rustamovich – Kimyo fanlari bo'yicha PhD, DTPI.
Kulbosheva Xurshida Xasanovna – Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.
Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna – Doktorant, DTPI.

Associate professor, DIEP.
Ruziyeva Inobat Jurayevna – Doctor of philosophy in biological sciences (PhD), DIEP.
Khamroyeva Marguba Komilovna – Doctor of philosophy in biological sciences (PhD), DIEP.
Xolmurodov Mengboy Amirovich – Candidate of biological sciences, DIEP.
Jurayev Bokhodir Turdaliyevich – Doctor of philosophy in historical sciences (PhD), DIEP.
Nazirov Bakhtiyor Safarovich – Doctor of philosophy in historical sciences (PhD), DIEP.
Muminov Olmas Ravshankulovich – Doctor of philosophy in historical sciences (PhD), DIEP.
Khojanova Tamara Zhurayevna – Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD), DIEP.
Toshboboev Maksud Jalilovich – Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD), DIEP.
Rakhmatov Erkin Togaymurodovich – Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD), DIEP.
Mamajanov Rahmatilla Yakubzhanovich – Candidate of technical sciences, Associate professor, DIEP.
Tursunbadalov Umid Abdumalikovich (Tajikistan) – Doctor of philosophy in technical sciences (PhD), DIEP.
Sobirova Mavjuda Ruzievna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), Associate professor, DIEP.
Eshkarayev Ulugbek Choriyevich – Candidate of technical sciences, Associate professor, DIEP.
Ismatov Sunnatilla Shamsulloyevich – Doctor of philosophy in technical sciences (PhD), Associate professor, DIEP.
Shukurov Dilmurod Khursanovich – Doctor of philosophy in technical sciences (PhD), DIEP.
Abdurakhmanov Alijon Abdulakhatovich - Doctor of philosophy in technical sciences (PhD).
Primkulov Begali Sheraliyevich – Doctor of philosophy in technical sciences (PhD), DIEP.
Karimov Khusniddin Rustamovich – Doctor of philosophy in chemistry (PhD), DTPI.
Kulbosheva Khurshida Khasanovna – Doctor of philosophy in chemistry (PhD), DTPI.
Sodiqova Bakhtigul Ibodullayevna – Doctoral student, DIEP.



PEDAGOGIKA

AKESEOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA MIGRANT TALABALARDA SHAXSIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

SAYDALIEVA LAZZAT MUXTARALI QIZI

Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Boshlangich talimda matematika

va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: lazzat.saydalieva@gmail.com

UDK: 37.091.3

<https://orcid.org/0009-0004-5111-1621>

Kalit so‘zlar:

akmeologik yondashuv, qadriyatlar, pedagogika, moslashuv, madaniyatlararo muloqot, innovatsion metodlar, rivojlanish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida migrant talabalarda shaxsiy qadriyatlarning shakllanishi pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Migrant talabalar yangi madaniy muhitga moslashish jarayonida o‘z-o‘zini anglash, madaniy integratsiya va psixologik adaptatsiyani boshdan kechirib, shaxsiy qadriyatlarini rivojlantirish zaruriyatini his etadilar. Tadqiqotda akmeologik tamoyillar qo‘llanilib, ularning intellektual va axloqiy kompetensiyalariga ta‘sir etuvchi omillar o‘rganiladi hamda pedagogik innovatsiyalar va interfaol metodlar orqali ijtimoiylashuv jarayoni yoritiladi. Tarbiyaviy qo‘llab-quvvatlash, axloqiy yo‘naltirish, individualizatsiya printsiplari va psixologik yordam o‘quv motivatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari migrant talabalar bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalarni taqdim etadi. Akmeologik yondashuv, zamonaviy texnologiyalar va psixopedagogik yordam migrant talabalarning ma‘naviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ-МИГРАНТОВ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Ключевые слова: акмеологический подход, ценности, педагогика, адаптация, межкультурная коммуникация, инновационные методы, развитие. инновационные методы, нравственное развитие.

Аннотация: В данной статье с педагогической точки зрения анализируется формирование личностных ценностей у студентов-мигрантов на основе акмеологического подхода. В процессе адаптации к новой культурной среде студенты-мигранты испытывают потребность в самосознании, культурной интеграции и психологической адаптации, развитии личностных ценностей. В исследовании используются акмеологические принципы, изучаются факторы, влияющие на их интеллектуальные и нравственные компетенции, а также освещается процесс социализации посредством педагогических инноваций и интерактивных методов. Воспитательная поддержка, нравственная ориентация, принцип индивидуализации и психологическая поддержка служат укреплению учебной мотивации. Результаты исследования предоставляют научно обоснованные рекомендации по повышению эффективности работы со студентами-мигрантами. Акмеологический подход, современные технологии и психолого-педагогическая помощь играют важную роль в духовном и социальном развитии студентов-мигрантов.

AXIOLOGICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF PERSONAL VALUES IN MIGRANT STUDENTS: PEDAGOGICAL FOUNDATIONS

Keywords: acmeological approach, values, pedagogy, adaptation, intercultural communication, innovative

Abstract: In this article, the formation of personal values in migrant students based on the acmeological approach is analyzed from a pedagogical point of view. Migrant students, in the process of adapting to a new cultural environment, experience the need for self-awareness, cultural integration, and psychological adaptation, as well as the development of personal values. The study uses acmeological principles, studies

methods, development.

the factors influencing their intellectual and moral competencies, and illuminates the process of socialization through pedagogical innovations and interactive methods. Educational support, moral guidance, the principle of individualization, and psychological support serve to strengthen learning motivation. The research results provide scientifically based recommendations for increasing the effectiveness of working with migrant students. The acmeological approach, modern technologies, and psycho-pedagogical support play an important role in the spiritual and social development of migrant students.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda globallashuv sharoitida ta’lim sohasi doimiy o‘zgarish va rivojlanish jarayonida bo‘lib, bu jarayon milliy va madaniy xilma-xillikning ortishiga olib kelmoqda. Xususan, dunyo bo‘ylab turli davlatlardan kelgan migrant talabalar sonining oshishi oliy ta’lim muassasalarida ularning samarali integratsiyasini ta’minlash masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Migrant talabalar yangi muhitga moslashish jarayonida nafaqat akademik bilimlarni egallash, balki ijtimoiy hayotga singish, yangi madaniyatni qabul qilish va o‘z shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish ehtiyojini ham sezadilar. Shu sababli ta’lim tizimi migrant talabalar uchun samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish orqali ularning intellektual hamda axloqiy rivojlanishiga ko‘mak berishi zarur.

Migrant talabalar bilan ishlashda ta’lim jarayonini ularning ehtiyojlari va madaniy o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda tashkil etish muhim sanaladi. Bunday talabalar turli madaniy muhitlardan kelgani sababli ularning qadriyatlar tizimi ham turlicha bo‘lishi tabiiydir [1]. Shunday ekan, ularning shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish jarayoni doimiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash va moslashtirishni talab etadi. Bu borada aksiologik yondashuv samarali natijalar berishi mumkin, chunki u talabalarning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan tizimli pedagogik metodlarni o‘z ichiga oladi.

Aksiologik yondashuv ta’lim jarayonida qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga e’tibor qaratib, talabalarning shaxsiy o‘shini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv migrant talabalar uchun nafaqat kasbiy va akademik muvaffaqiyatga erishish, balki yangi ijtimoiy muhitga moslashish hamda o‘z madaniy va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash imkonini beradi. Shu bois, migrant talabalar bilan ishlashda ularga mos keladigan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [2].



Ushbu tadqiqot migrant talabalar uchun shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishda aksiologik yondashuvning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalari va pedagoglar uchun migrant talabalarni qo'llab-quvvatlashda samarali yondashuvlarni ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin.

ASOSIY QISM

Aksiologik yondashuvning mohiyati

Aksiologiya – qadriyatlarning tabiati, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va inson shaxsiyatiga ta'sirini o'rganadigan fan sohasi hisoblanadi. Ushbu yo'nalish insonning axloqiy, madaniy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarini tahlil qiladi hamda ularning shakllanish jarayonlarini o'rganadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, aksiologik yondashuv o'quvchilarga va talabalarga muhim qadriyatlarni singdirish, ularni hayotiy tamoyillarga asoslangan holda tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimida aksiologik yondashuvning asosiy vazifasi insonning fundamental qadriyatlarini aniqlash va ularni yosh avlod ongiga singdirishga qaratilgan. Bu jarayonda nafaqat an'anaviy axloqiy tamoyillar, balki zamonaviy jamiyatda dolzarb bo'lgan universal qadriyatlar ham inobatga olinadi. Masalan, insonparvarlik, hurmat, adolat, mas'uliyat va tolerantlik kabi qadriyatlar yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois pedagogik jarayonda aksiologik yondashuvdan samarali foydalanish talabalar ongida jamiyatga mos va yo'naltirilgan qadriyatlar tizimini shakllantirishga yordam beradi.

Migrant talabalar uchun aksiologik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Ular yangi madaniy va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida o'z shaxsiy qadriyatlarini yo'qotmasliklari, shu bilan birga, yangi ijtimoiy normalarga moslashishlari zarur. Migrant talabalar turli madaniy an'analarga ega bo'lgani sababli ularning qadriyatlar tizimi ham farqlanadi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayonida migrant talabalar uchun shaxsiy qadriyatlarning ahamiyatini tushuntirish, ularni jamiyatga integratsiya qilish hamda o'z madaniy merosini saqlab qolishiga ko'maklashish muhim hisoblanadi.

Aksiologik yondashuv migrant talabalar uchun shaxsiy identifikatsiyani saqlab qolish va shu bilan birga, yangi muhitga moslashishga yordam beradigan samarali pedagogik metodlarni taklif etadi. Ushbu yondashuv orqali talabalar o'z madaniy qadriyatlarini anglab yetishlari, ular bilan faxrlanishlari va, shu bilan birga, yangi jamiyatdagi qadriyatlarni ham o'zlashtirishlari mumkin. Bu jarayonda pedagoglarning roli muhim sanaladi. Ular migrant talabalar uchun shunday ta'lim muhitini yaratishlari kerakki, bunda talabalar o'zlarini hurmat qilingan va qadrlangan deb his

qilsinlar.

Umuman olganda, aksiologik yondashuv migrant talabalarni o'z madaniyati va jamiyat talablariga mos tarzda rivojlanishga yo'naltiradi. Ushbu yondashuv orqali ular nafaqat o'z shaxsiy qadriyatlarini mustahkamlashlari, balki yangi ijtimoiy va madaniy sharoitlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish ko'nikmalarini ham shakllantirishlari mumkin. Shunday qilib, ta'lim jarayonida aksiologik yondashuvdan samarali foydalanish migrant talabalar uchun nafaqat moslashuv jarayonini yengillashtiradi, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

Migrant talabalarning qiyinchiliklari

Migrant talabalar ta'lim jarayonida turli xil qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ularning yangi ta'lim muhitiga moslashish jarayoni ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu jarayon individual va jamiyat miqyosida qo'llab-quvvatlanishni talab qiladi. Migrant talabalar duch keladigan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

Madaniy farqlar: Migrant talabalar o'z ona yurti va yangi muhit o'rtasidagi madaniy tafovutni sezilarli darajada his qilishadi. Ularning o'zlari bilan olib kelgan urf-odatlarini, qadriyatlarini va madaniy an'analari ko'pincha yangi jamiyat madaniyati bilan farqlanadi. Ba'zi hollarda, bu farqlar migrant talabalar va mahalliy talabalar o'rtasida tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ular yangi madaniyatga moslashish jarayonida o'z shaxsiy qadriyatlarini saqlab qolish va yangi muhitga moslashish o'rtasidagi muvozanatni topishga harakat qilishadi.

Til to'sig'i: Yangi ta'lim muhitiga to'liq moslashish uchun migrant talabalar ta'lim olib boriladigan tilni mukammal bilishlari talab etiladi. Til bilish darajasi past bo'lsa, ular o'qituvchilarni tushunishda, dars materiallarini o'zlashtirishda va imtihonlarda yaxshi natijalar ko'rsatishda muammolarga duch kelishadi. Bundan tashqari, til to'sig'i ularning mahalliy talabalar bilan muloqot qilishiga ham to'siq qilishi mumkin, bu esa ijtimoiy integratsiya jarayonini murakkablashtiradi.

Psixologik bosim: Migrant talabalar ko'pincha yangi jamiyatga qo'shilish jarayonida o'zlarini yolg'iz his qilishadi. O'z oilasidan uzoqda bo'lish, qo'llab-quvvatlash tizimining yetishmasligi va yangi muhitga moslashish zarurati ularga kuchli psixologik bosim yuklaydi. Ayrim migrant talabalar o'zlarini jamiyatga kerak emasdek yoki chetlatilgandek his qilishlari mumkin. Bu esa depressiya, tashvish va o'ziga ishonchsizlik kabi ruhiy muammolarni keltirib chiqarishi ehtimolini oshiradi.

Ijtimoiy integratsiya muammolari: Migrant talabalar mahalliy talabalar bilan o'zaro muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ularning madaniy farqlari, til bilish darajasi va o'zlarini begona his qilishlari ijtimoiy aloqalar o'rnatish jarayonini murakkablashtiradi. Ayrim hollarda, migrant talabalar kamsitilish yoki

e'tiborsizlikka uchrashi ham mumkin, bu esa ularning yangi jamiyatga moslashishini sekinlashtiradi.

Aksiologik yondashuv yordamida muammolarni yengish: Aksiologik yondashuv migrant talabalar duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv orqali talabalarga o'z shaxsiy qadriyatlarini saqlab qolish va shu bilan birga yangi ijtimoiy normalarga moslashish imkoniyati yaratiladi. Pedagoglar migrant talabalar uchun inkluziv ta'lim muhitini yaratishlari, ularning madaniy o'ziga xosliklarini hurmat qilishlari va ularni ijtimoiylashuv jarayoniga jalb qilishlari muhimdir [3].

Shuningdek, til o'rganish bo'yicha qo'shimcha kurslar, psixologik yordam markazlari va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar migrant talabalar uchun qo'llab-quvvatlovchi omillar bo'lishi mumkin. Agar migrant talabalar uchun mos shart-sharoitlar yaratilsa, ular yangi ta'lim tizimida yanada faol ishtirok etishlari, ijtimoiy integratsiyani osonlashtirishlari va o'z qadr-qimmatini saqlab qolgan holda jamiyatga muvaffaqiyatli qo'shilishlari mumkin.

Migrant talabalarda qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik yo'nalishlari

Migratsion jarayonlarda talabalar o'z qadriyat tizimlarini rivojlantirish uchun qo'shimcha pedagogik qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar. Ularning yangi madaniy muhitga moslashishi, til to'sig'ini yengib o'tishi va jamiyatga integratsiyalashuvi uchun maxsus pedagogik yondashuvlar zarur. Quyida migrant talabalar uchun eng samarali pedagogik yo'nalishlar keltirilgan.

1. Madaniy moslashuv va inklyuziv ta'lim.

Migrant talabalar o'z madaniyatini saqlab qolgan holda yangi muhitga moslashishi lozim. Buning uchun quyidagi pedagogik yondashuvlar qo'llaniladi:

– Madaniy almashinuv dasturlarini tashkil etish – turli millat vakillari bilan birga tadbirlar va festivallar o'tkazish orqali ularning madaniy merosini tanitish hamda o'zaro tushunishni rivojlantirish.

– Mahalliy talabalar bilan hamkorlikdagi loyihalar va seminarlar – jamoaviy ishlarda ishtirok etish orqali migrant talabalar jamiyat bilan yaxshiroq bog'lanadi.

– Multikultural muhit yaratish – turli madaniyat va millatlarga mansub talabalar uchun ochiq va do'stona o'quv muhitini shakllantirish, bu orqali shaxsiy va milliy identifikatsiyani qo'llab-quvvatlash.

2. Til va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish.

Migrant talabalar yangi ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli qo'shilishi uchun til va kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlash muhim:

– Til kurslari va individual repetitorlik mashg'ulotlari – yangi tilni tezroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha darslar tashkil etish.

– O‘zaro muloqotni rivojlantirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish – video roliklar, teatr sahnalari va rolli o‘yinlar orqali til muhitiga chuqurroq kirishish.

– Jamoaviy ishlar orqali ijtimoiy faoliyatga jalb qilish – mahalliy va migrant talabalar o‘rtasida do‘stona muhit yaratish uchun jamoaviy tadbirlar tashkil etish.

3. Qadriyatlar tizimini shakllantirish va mustahkamlash.

Migrant talabalar uchun nafaqat akademik bilimlar, balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish ham muhim:

– Axloqiy va ma’naviy tarbiyaning ahamiyatini oshirish – migrant talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish.

– Yetuk shaxs sifatida o‘zlarini namoyon qilishga ko‘maklashish – ularga o‘z fikrlarini aniq ifodalash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda yordam berish [4].

4. Psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.

Migrant talabalar yangi muhitga moslashishda psixologik qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadilar. Ular uchun quyidagi yondashuvlar foydali bo‘lishi mumkin:

– Maxsus maslahat markazlarini tashkil etish – psixologik va akademik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.

– Psixologik trening va stressni kamaytirish usullarini o‘rgatish – stressni boshqarish va o‘z-o‘zini motivatsiya qilish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish.

– Mentorlik tizimi orqali individual yondashuvni yo‘lga qo‘yish – migrant talabalarni tajribali talabalarga yoki o‘qituvchilarga biriktirish orqali ularga maslahat berish va moslashuv jarayonini osonlashtirish.

5. Pedagogik texnologiyalar va metodlar.

Migrant talabalar bilan ishlash uchun quyidagi pedagogik texnologiyalar samarali hisoblanadi [5]:

– Faol ta’lim metodlari – muammoli ta’lim, loyihaviy ta’lim va tajriba asosidagi ta’lim metodlari migrant talabalarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilishga yordam beradi.

– Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) – onlayn kurslar va virtual seminarlar migrant talabalar uchun qo‘shimcha bilim olish imkoniyatini yaratadi.

– Reflektiv pedagogika – talabalarining o‘z qadriyatlarini anglash va mustahkamlashiga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, bunda ular o‘z hayotiy tajribalarini tahlil qilib, kelajakda to‘g‘ri yo‘l tanlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Ushbu pedagogik yondashuvlar migrant talabalar uchun qulay va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratishga, ularning shaxsiy qadriyatlarini mustahkamlashga va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi [6].

XULOSA

Migrant talabalar turli madaniy va ijtimoiy muhitlarga moslashish jarayonida ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu muammolarni hal qilish va ularning ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli integratsiyasini ta‘minlash uchun aksiologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv migrant talabalar uchun shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish, ijtimoiy moslashuvni osonlashtirish va ularning yangi jamiyatga qo‘shilish jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Aksiologik yondashuv doirasida migrant talabalar uchun madaniy moslashuv, til va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, qadriyatlar tizimini mustahkamlash va psixologik qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar muhimdir. Madaniy almashinuv dasturlari, jamoaviy loyihalar va inklyuziv ta‘lim migrant talabalarni yangi muhitga yaxshiroq moslashishiga yordam beradi. Til to‘sig‘ini yengish uchun maxsus kurslar va interaktiv usullardan foydalanish esa ularning muloqot qobiliyatlarini oshiradi.

Shuningdek, migrant talabalar uchun axloqiy va ma‘naviy qadriyatlarni singdirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, o‘zligini anglashga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Bunda reflektiv pedagogika va mentorlik tizimi samarali natijalar berishi mumkin.

Barcha ushbu pedagogik yondashuvlar migrant talabalar uchun qo‘llab-quvvatlovchi va qulay muhit yaratish, ularning shaxsiy va akademik rivojlanishini ta‘minlash, madaniy xilma-xillikni qadrlash va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli migrant talabalarni ta‘lim jarayoniga jalb etishda aksiologik yondashuv asosiy tamoyillardan biri sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. – М.: Наука, 1977.
2. Бодалев А.А. Акмеология как учебная и научная дисциплина. – М.: Луч, 1993.
3. Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. – М.: РАО, 1993. – С. 32.
4. Ситников А.П. Акмеологический тренинг. Теория, методика, психотехнологии. – М.: «Технологическая школа бизнеса», 1996. – С. 16-17.
5. Бодалев А.А. Акмеология как научная дисциплина. – М.: РАО, 1993. – С. 20.



MUNDARIJA:

IJTIMOIIY FANLAR

- | | |
|---|-------|
| 1. <i>Norbo'tayev I. M. Globalizatsiya va ijtimoiy tuzumlar: boshqa madaniyatlar va iqtisodiy tizimlarning ta'siri.....</i> | 5-12 |
| 2. <i>Tursoatov A. A, Mirzakulov U. A, Jabborov S. B. Problems of communication in the process of learning russian as a foreign language.....</i> | 13-24 |

TABIY FANLAR

- | | |
|--|-------|
| 3. <i>Baychayev F. X. "Molekulyar fizika" bo'limidan konchilik yo'nalishiga doir kasbiy yo'naltirilgan masalalarni yechish.....</i> | 25-33 |
| 4. <i>Aslanova X. G. Surxondaryo ekologik sharoitida bo'yoq beruvchi o'simliklarni fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini baholash.....</i> | 34-41 |

PEDAGOGIKA

- | | |
|--|---------|
| 5. <i>Sobirova M. R. Talabalarning maktab geometriyasini fizika bilan sinxron va asinxron bog'lab o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....</i> | 42-50 |
| 6. <i>Kayumova N. A. Talabalarni axborot tizimlarini modellashtirishga o'rgatish.....</i> | 51-60 |
| 7. <i>Mamadaliyev K. R. Respublikada yuqori sifatli mutaxassislar tayyorlashda masofaviy ta'lim jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari va samaradorligi mezonlari.....</i> | 61- 66 |
| 8. <i>Choriev J. G'. Millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda ilmiy-nazariy konsepsiyalarning o'rni.....</i> | 67-75 |
| 9. <i>Mamajanov R. Y, Mamajanova K. R. Sun'iy intellekt asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini regressiya tahlili.....</i> | 76-84 |
| 10. <i>Maxmudov Sh. K. Rahbarlarning muvaffaqiyatli ishlashiga ta'sir qiladigan asosiy omillar.....</i> | 85-90 |
| 11. <i>Sattorova M. A. Bo'lajak defektologlarni inklyuziv jarayonga Tayyorlash.....</i> | 91-99 |
| 12. <i>Xalmuratova J. G, Ma'rufjonov Q. N. Texnika oliy o'quv yurti talabalarining kreativ potensialini rivojlantirish konsepsiyasi.....</i> | 100-109 |
| 13. <i>Yaxyayeva S. A. Genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning metodik ta'minoti.....</i> | 110-116 |



14. Sabirova N. E. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	117-125
15. Xayrov P. 3. Совершенствование профессиональной подготовки студентов изобразительного искусства через акварельную живопись.....	126-136
16. Norqobilova R. D. Xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishning ahamiyati.....	137-146
17. Orazbayeva G. J. Maktab o'quvchilarining o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining ba'zi jihatlari haqida turli konsepsiyalar.....	147-153
18. Berdiyeva G. Sh. Aksiologik yondashuv – talabalarda qadriyatli muloqot madaniyatini shakllantirish omili sifatida.....	154-161
19. Kuchkinov A. Y. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida eko-steam yondashuvni time-lapse texnologiyasi yordamida tashkil etish metodikasi.....	162-169
20. Ismoilova Y. T. Pedagogik konfliktologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarining o'rni va ahamiyati.....	170-181
21. Normurodova S. X. Scratch dasturi yordamida 1-sinf o'quvchilarining tasavvurini rivojlantirish va alifbeni o'rganish jarayonini takomillashtirish.....	182-190
22. Meliyeva D. O'. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlash ko'nikmalarini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish.....	191-197
23. Saydalieva L. M. Akeseologik yondashuvlar asosida migrant talabalarda shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik asoslari	198-205
24. Usmonova Q. S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy layoqatini trening vositasida aniqlash.....	206-212
25. Xamidova A. X. The principles of material selection for teaching physics using interactive methods.....	213-222
26. Ubaydullayeva G. O. Inklyuziv ta'limdagi ilg'or pedagogik texnologiyalar	223-232
27. Rahmonova D. R. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish modeli.....	233-244
28. Madaliyev B. E. Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari.....	245-258
29. Normo'minova Sh. B. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va jamoatchilikning roli.....	259-265
30. Mamatova U. Z. Ta'lim jarayonida mustaqil o'qitishning o'rni va ahamiyati.....	266-273



31. **Mahmudova N. D.** *Pedagogik jarayonda metodlardan foydalanishning nazariy ahamiyati*274-284
32. **Ashurov N. R.** *O'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini tanqidiy fikrlash texnologiyasi vositasida rivojlantirish*.....285-294



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining
“**Tadbirkorlik va pedagogika**” ilmiy-uslubiy jurnali
2020-yil 18-sentabrda 1114-raqamli guvohnoma bilan
ro‘yxatga olingan. Har chorakda bir marotaba chop etiladi.
Jurnalda nashr etilgan maqolalar <https://inlibrary.uz/>, <https://slib.uz/uz/>,
<https://scholar.google.com>, <https://www.openaire.eu/>, <https://www.researchbib.com/>
platformalarida indekslanadi.

Terishga berildi: 15.04.2025-yil.
Bosishga ruxsat etildi: 20.04.2025-yil.
Qog‘oz bichimi 60*84 1/8. Adadi – 50 ta.
Nashr tabog‘i – 13,5. Buyurtma № 1-T.

Manzilimiz: 190507, Surxondaryo viloyati
Denov shahri Sharof Rashidov ko‘chasi 360-uy.
info_dtpi@yedu.uz, dtpi@yexat.uz
+998-95-650-77-57

Maqola nashr ettirish maqsadida bog‘lanish uchun:
+998 90 976-76-98. URL: <https://t.me/MrScott98>

Maqolalarda keltirilgan fikr va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.